

## EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNING BUTUN DUNYODA IQTISODIY OQIBATLARI

*SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assessanti **Usmonov Murod***

*SamISI talabasi **Qahharova Barchinoy***

*SamISI talabasi **Fayzullayeva Guljamol***

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ekologik muammolar va ularning jahon iqtisodiyotiga ta’siri haqida bat afsil ma’lumot beradi. Atmosfera ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining tanqisligi va o‘rmonlarning kamayishi kabi ekologik masalalar nafaqat tabiiy muhitga, balki iqtisodiy barqarorlikka ham jiddiy zarar yetkazmoqda. Iqlim o‘zgarishi qishloq xo‘jaligi mahsuldarligining pasayishiga, sog‘liqni saqlash xarajatlarining oshishiga va tabiiy ofatlar oqibatida infratuzilmaning yo‘q qilinishiga olib keladi. Shuningdek, tabiiy resurslarining kamayishi sanoat, turizm va boshqa iqtisodiy faoliyat tarmoqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolada yashil texnologiyalarni rivojlantirish, o‘rmonlarni saqlash va xalqaro ekologik hamkorlikni kuchaytirish orqali ekologik muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar taqdim etilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashning dolzarbliyi ta’kidlangan. Ushbu ish, iqtisodiy barqarorlikka tahdid solayotgan ekologik muammolarni bartaraf etishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация об экологических проблемах и их влиянии на мировую экономику. Экологические проблемы, такие как загрязнение воздуха, изменение климата, нехватка водных ресурсов и истощение лесов, наносят серьезный ущерб не только природной среде, но и экономической стабильности. Изменение климата приведет к снижению производительности сельского хозяйства, увеличению расходов на

здравоохранение и разрушению инфраструктуры в результате стихийных бедствий. Также истощение природных ресурсов оказывает негативное влияние на промышленность, туризм и другие отрасли экономической деятельности. В статье представлены рекомендации по устранению экологических проблем путем развития зеленых технологий, сохранения лесов и укрепления международного экологического сотрудничества. При этом была подчеркнута актуальность обеспечения баланса между экономическим развитием и экологической стабильностью. Эта работа имеет важное теоретическое и практическое значение для разработки эффективных подходов к устранению экологических проблем, угрожающих экономической стабильности.

*Abstract: This article provides detailed information about environmental problems and their impact on the world economy. Environmental issues such as air pollution, climate change, scarcity of water resources and depletion of forests are causing serious damage not only to the natural environment, but also to economic stability. Climate change will reduce agricultural productivity, increase health care costs, and destroy infrastructure from natural disasters. Also, the depletion of natural resources has a negative impact on industry, tourism and other sectors of economic activity. The article presents recommendations on how to eliminate environmental problems by developing green technologies, preserving forests, and strengthening international environmental cooperation. At the same time, the urgency of ensuring a balance between economic development and ecological stability was emphasized. This work has important theoretical and practical implications for the development of effective approaches to the elimination of environmental problems that threaten economic stability.*

**Kalit so`zlar:** Ekologik muammolar, iqlim o`zgarishi, iqtisodiy oqibatlar, atmosfera ifloslanishi, suv tanqisligi, o`rmonlarning kamayishi, yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish, global isish, ekologik barqarorlik, resurslar tanqisligi, tabiiy ofatlar, qishloq xo`jaligi mahsuldarligi, xalqaro hamkorlik.

**Ключевые слова:** Экологические проблемы, изменение климата, экономические последствия, загрязнение атмосферы, нехватка воды, вырубка лесов, зеленые технологии, устойчивое развитие, глобальное потепление, экологическая устойчивость, нехватка ресурсов, стихийные бедствия, продуктивность сельского хозяйства, международное сотрудничество

**Keywords:** Environmental problems, climate change, economic consequences, atmospheric pollution, water scarcity, deforestation, green technologies, sustainable development, global warming, environmental sustainability, resource scarcity, natural disasters, agricultural productivity, international cooperation.

**Kirish:** Ekologik muammolar hozirgi zamонавиј дунёнинг eng асосиј muammolaridan бирি bo`lib kelmoqда. Jahondagi jamikiy mamlakatlarning oldidagi eng ustuvor vazifalardan бирি hisoblanib, iqtisodiyot sohasidagi barcha fanlar shu muammoni yechimini topishga o` yechimlarini topishga harkat qilib kelmoqда. Huddi o`sha fanlar singari “Jahon iqtisodiyoti” fani ham shu muamoni tahlil qilishda o`zining qarashlariga egadir. Keling endi iqtisodiy jihatdan muammolarni tahlil qilib ko`ramiz.

Bundan roppa-rosa 10 yildan so‘ng dunyo manzarasi qanday bo‘lishi haqida hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Insoniyatning hayot kechirish tarzi qay tarzda o‘zgarishi mumkinligi haqida-chi? Hozirgi an’analarimiz qay darajada o‘zgarishi mumkin deb hisoblaysiz? Shunisi ma’lumki, yer sharining ekologik vaziyati o‘tgan asrga nisbatan misli ko‘rilmagan darajada o‘zgarishga ulgirishi bilan bir qatorda avlodlarning chinakamiga qarg‘ishiga sabab bo‘luvchi muammolarni ham vujudga keltirdi. Garchi ushbu hodisalar dunyo hamjamiyatini global ekologik muammolar to‘g‘risida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lish, tadqiqotlar olib borish va bu muammolarni bartaraf etish borasida amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishga undab kelayotgan bo‘lsa hamki, ko‘pchilik mamlakatlar va millatlar bu muammolarning ko‘lami shabadasini sezalishmayapti yoxud ular

o‘zlarini mutlaqo xabarsizdek tutishmoqda. Ekologik barqarorlikni ta’minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan va yuz berib bo‘lgan muammolarga yechim topish, ularni oqilona hal qilish kabi masalalarga qay darajada ahamiyat berib kelinmoqda? Bu mavzuda shunchaki reja va konsepsiylar ishlab chiqilib, konferensiya mavzusi sifatida qarab kelinmoqdam? Afsuski, shunday!

Global ekologik o‘zgarishlarning salbiy oqibatlari nimalarda aks etadi? Mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy hukmronlikka intilib, ulkan obro‘ qozonish maqsadida mamlakat ishlab chiqarishiga alohida urg‘u berib kelayotganligi global ekologik inqirozni keltirib chiqarmayaptimikan?

Shu sababli, hukumatlar ekologik xavfsizlikni ta’minlashdan bo‘yin tovlayotgan davlatlarga nisbatan **iqtisodiy sanksiyalar qo‘llash, ularning tovarlarini sotib olishdan bosh tortish** orqali butun dunyoda ekologik xavfsizlikni ta’minlagan bo‘lar edilar.

**Adabiyotlar tahlili:** Ushbu maqolada keltirilgan adabiyotlar ekologik muammolar va ularning iqtisodiy oqibatlari bo‘yicha dolzarb ma’lumotlarni taqdim etuvchi nufuzli manbalar asosida tanlangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO): Havo ifloslanishi va uning iqtisodiy zararlarini o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib boruvchi tashkilot. Ushbu manbadan havo ifloslanishi tufayli yuzaga keladigan sog‘liqni saqlash va iqtisodiy zararlar miqdorini aniqlashda foydalanilgan.

Swiss Re Institute: Iqlim o‘zgarishining global iqtisodiy oqibatlarini tahlil qiluvchi yetakchi institut. Ushbu institutning hisobotlari iqlim o‘zgarishi sababli kelib chiqadigan iqtisodiy yo‘qotishlarni o‘lchash uchun asos bo‘lgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT): Suv resurslarining tanqisligi va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha global hisobotlar ushbu muammolarning iqtisodiy oqibatlarini yoritishda muhim rol o‘ynagan. Bu ma’lumotlar muammolarning xalqaro ko‘lamini tasdiqlashda ishlatilgan. Harvard University: Havo ifloslanishining

ishchi kuchi unumdorligiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar maqolada muhim dalil sifatida keltirilgan. Bu manba ekologik muammolarning ishlab chiqarishga salbiy ta'sirini ko'rsatgan.

World Resources Institute (WRI): O'rmonlarning kamayishi va bu jarayonning iqtisodiy oqibatlari bo'yicha ma'lumotlar WRI hisobotlariga asoslanib bayon qilingan. O'rmonlarning kamayishi ekotizim va iqtisodiy resurslarga katta ta'sir ko'rsatishi bu manba yordamida ko'rsatib berilgan. International Monetary Fund (IMF): Iqlim o'zgarishining global yalpi ichki mahsulotga (Yaim) ta'sirini baholash uchun IMF hisobotlaridan foydalilanilgan. Ushbu tashkilotning iqtisodiy modellari maqolada keltirilgan iqtisodiy tahlillarni chuqurlashtirgan. National Geographic va Ellen MacArthur Foundation: Plastik ifloslanish va uning iqtisodiy ta'siri bo'yicha manbalar ekologik chiqindilar masalasini yoritishda foydali bo'lgan. Bu ma'lumotlar plastik chiqindilarni kamaytirishning iqtisodiy foydalarini ko'rsatadi. XS.UZ maqolasi: Mahalliy ekologik muammolar va ularning barqaror rivojlanishga tahdidi bo'yicha aniq tavsiyalar keltirilgan.

**Tahlil:** Shu o'rinda, "iqtisodiy qamchi" usuli chinakamiga qo'l beradi. Insoniyat boshiga ko'lanka solib turgan ekologik falokatlarning oldini olish bo'yicha xalqaro hamkorlik ma'lum darajada shakllangan va muhim tadbirlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, hali bu boradagi ishlarni yana-da izchil faollashtirish zarur. Chunki hozirgacha atrof-muhit muhofazasi va insoniyatga yetarli, qulay yashash sharoitlarini yaratish masalalarini boshqarib turuvchi tom ma'nodagi keng ko'lamli, ta'sirchan, xolis, yagona xalqaro tizim vujudga kelgani yo'q. Xalqaro ekologik hamkorlik takomillashib borishi insoniyat taraqqiyotining bundan keyingi bosqichlarida ham muhim hayotiy zaruratlardan biri bo'lib qolaveradi.

Ekologik muammolarni va ularning iqtisodiy oqibatlarini tadqiq qilishda quyidagi sohalar va dalillar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot qismi

ekologik muammolar va ularning iqtisodiy ta'sirini chuqurroq o'rganish uchun ma'lumotlar va tahlillarni taqdim etadir.

Atmosfera ifloslanishi va iqtisodiy oqibatlari:Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, har yili havo ifloslanishi bilan bog'liq sog'liqni saqlash muammolari tufayli dunyo iqtisodiyoti 4-5 trln AQSh dollari miqdorida zarar ko'radi.

Ifoslanish transport, sanoat va ko'mir yoqilg'i manbalaridan kelib chiqadi, bu esa ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligini pasaytiradi.

Harvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, havo ifloslanishi ishchi kuchi unumdorligini 20% ga qisqartiradi.

Iqlim o'zgarishi va iqtisodiy zararlari:2021 yilda "Swiss Re Institute" tomonidan o'tkazilgan tadqiqot iqlim o'zgarishi global YaIMni (yalpi ichki mahsulotni) 2050 yilga kelib 10-18% ga pasaytirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Qurg'oqchilik va o'rmon yong'inlari tufayli qishloq xo'jaligida hosildorlik pasaymoqda. Masalan, Afrikada yillik qurg'oqchilik 1,4 mlrd AQSh dollariga teng zarar keltiradi.Dengiz sathining ko'tarilishi dunyo bo'y lab ko'chirish va infratuzilmani qayta qurishga 40-50 mlrd AQSh dollari miqdorida qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Suv tanqisligi va iqtisodiy ta'sirlar:Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hisob-kitoblariga ko'ra, 2030 yilga borib global suv tanqisligi 700 million kishining migratsiyasiga sabab bo'lishi mumkin.Suv yetishmovchiligi sanoat ishlab chiqarishini 14% ga pasaytirib, yillik iqtisodiy zarar 500 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligidagi sug'orish uchun suv tanqisligi natijasida hosildorlik pasayishi global oziq-ovqat narxlarining 30% ga oshishiga olib kelishi kutilmoqda.

Deforestatsiya va uning iqtisodiy oqibatlari:Dunyo bo'y lab har yili 10 mln hektar o'rmon yo'q qilinmoqda, bu esa biologik xilma-xillikni pasaytirib, ekotizim xizmatlarining qiymatini kamaytiradi."World Resources Institute"

ma'lumotlariga ko'ra, o'rmonlarning kamayishi bilan bog'liq iqtisodiy yo'qotish yillik 4,5 trln AQSh dollariga teng. Turizm va biologik xilma-xillikka asoslangan iqtisodiyotga salbiy ta'siri o'rtacha 30% ni tashkil etadi.

Chiqindilar va qayta ishslash tizimining iqtisodiy natijalari: Har yili global miqyosda 2 milliard tonnadan ortiq qattiq chiqindilar hosil bo'ladi, ularning faqat 13,5% qayta ishlanadi. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlarni boy berishga olib keladi.

Plastik ifloslanish dunyo iqtisodiyotiga 13 mlrd AQSh dollari miqdorida zarar keltiradi. Qayta ishslash tizimini rivojlantirish orqali har yili 500 mingdan ortiq yangi ish o'rnlari yaratish imkoniyati mavjud.

Tadqiqotlardan kelib chiqadigan asosiy natijalar: Ekologik muammolar sabab global iqtisodiyot yillik trillionlab dollar miqdorida zarar ko'rmoqda. O'rmonlarni tiklash va yashil texnologiyalarni rivojlantirish kabi yechimlar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Iqlim o'zgarishi natijasida zarar ko'rgan hududlarda iqtisodiy diversifikatsiya zarur.

Suvni tejash va qayta ishslash texnologiyalarini kengaytirish iqtisodiy barqarorlikka ijobjiy ta'siri ko'rsatadi.

**Tadqiqot masalalari va istiqbollar:**

Ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun davlatlararo hamkorlik va xalqaro shartnomalarning roli.

Texnologik yangiliklarning ekologik barqarorlikka ijobjiy ta'siri bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish zarurati.

Mahalliy jamoalarda ekologik muammolarni tushunish va ularning yechimlariga faol jalb qilish strategiyalari.

Mazkur tadqiqot ma'lumotlari, muammolarni ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil qilish orqali, ekologik barqarorlikni ta'minlashda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

### **Taklif va xulosalar:**

Takliflar tahlili:

Yashil texnologiyalarni rivojlantirish: Bu taklif ekologik muammolarni bartaraf etishda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi. Yashil texnologiyalarni joriy qilish resurslarni tejamkorlik bilan boshqarishga yordam beradi, bu esa iqtisodiy foyda keltiradi. Bu taklifni amalga oshirish, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish orqali amalga oshirilishi mumkin.

O'rmonlarni saqlash va tiklash: Ushbu taklif ekologik tizimni mustahkamlash bilan birga biologik xilma-xillikni saqlab qolish imkoniyatini beradi. Bu nafaqat ekologik, balki turizm, qishloq xo'jaligi va farmatsevtika sanoatiga ham iqtisodiy foyda keltiradi. Bu yondashuv ekologik muammolarning global ko'lами hisobga olib, davlatlararo hamkorlikning zarurligini ta'kidlaydi. Masalan, Parij kelishuvi kabi tashabbuslar muammolarni hal qilishda yaxshi namuna sifatida xizmat qilishi mumkin. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish: Resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanish iqtisodiy barqarorlikka bevosita ta'sir qiladi. Bu, xususan, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida resurs tanqisligini kamaytirishga yordam beradi.

#### Xulosalar tahlili:

Ekologik barqarorlikning iqtisodiy ahamiyati: Ekologik barqarorlikni ta'minlash iqtisodiy zararlarning oldini olish uchun zarur. Iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning tanqisligi sabab iqtisodiy yo'qotishlar yil sayin ortmoqda. Maqoladagi xulosalar ushbu muammolarning jiddiyatini iqtisodiy tahlillar asosida ko'rsatib beradi. Ekologik muammolarni hal qilish uchun davlat siyosati va xalqaro shartnomalarning ahamiyati ta'kidlangan. Ushbu yondashuvning dolzarbliji, masalan, global karbon soliqlari yoki iqtisodiy sanktsiyalar kabilar orqali ifodalanadi. Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish zarurati. Innovatsiyalar ekologik muammolarni samarali hal qilishda muhim omil sifatida taqdim etilgan. Texnologik rivojlanish ekologik va iqtisodiy barqarorlik o'rtasida muvozanatni ta'minlashga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO): Havo ifloslanishining sog‘liq va iqtisodiyotga ta’siri. ([www.who.int](http://www.who.int))
2. Swiss Re Institute: "The economics of climate change" hisobotlari. ([www.swissre.com](http://www.swissre.com))
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT): Iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi bo‘yicha global hisobotlar. ([www.un.org](http://www.un.org))
4. Harvard University: Havo ifloslanishi va ishchi kuchi unumдорлиги bo‘yicha tadqiqotlar. ([www.harvard.edu](http://www.harvard.edu))
5. World Resources Institute (WRI): O‘rmonlarning yo‘q qilinishi va uning iqtisodiy oqibatlari. ([www.wri.org](http://www.wri.org))
6. International Monetary Fund (IMF): Iqlim o‘zgarishining global YaIMga ta’siri bo‘yicha hisobotlar. ([www.imf.org](http://www.imf.org))
7. Plastik ifloslanish tadqiqotlari: National Geographic va Ellen MacArthur Foundation ma’lumotlari. ([www.nationalgeographic.com](http://www.nationalgeographic.com), [www.ellenmacarthurfoundation.org](http://www.ellenmacarthurfoundation.org))
8. <https://xs.uz/uz/post/global-ekologik-muammolar-barqaror-taraqqiyotga-katta-tahdid-solmoqda-buning-oldini-olish-uchun-nima-qilish-kerak.maqolasidagi> ma`lumotlat